BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.08.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

MIRZAYEVA AZIZA SHAVKATOVNA

RIK RIORDAN IJODIDA TRANSTEKSTUALLIK

10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

Filologiya fanlarI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

UDK: 821.111(73).09-31

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

The contents of the dissertation abstract for a Doctor of Philosophy (PhD) in Philology

Mirzayeva Aziza Shavkatovna
Rik Riordan ijodida transtekstuallik 3

Мирзаева Азиза Шавкатовна
Транстекстуальность в творчестве Рика Риордана 23

Mirzaeva Aziza Shavkatovna
Transtextuality in Rick Riordan’s works 45

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works 49

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.08.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

MIRZAYEVA AZIZA SHAVKATOVNA

RIK RIORDAN IJODIDA TRANSTEKSTUALLIK

10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2022.3.PhD/Fil2743 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Xajiyeva Feruza Melsovna** filologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Xamdamova Sitora Baxshilloyevna** filologiya fanlar falsafa doktori, dotsent **Ochilov Ulug‘bek Sayfullayevich** filologiya fanlar falsafa doktori, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Samarqand davlat chet tillar instituti.**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/2025.27.12.Fil.08.08 raqamli bir martalik Ilmiy kengashning 2026-yil «13» noyabr soat 9³⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko’chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-29-14; faks: (0 365) 221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (20/1086 raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «2» noyabr kuni tarqatildi.

(2026-yil «2» noyabr dagi 26-3 - raqamli reestr bayonnomasi.)

O.M.Fayzulloyev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori, professor

M.R.Ochilova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor

M.Q.Baqoyeva
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyoti XXI asrda an’anaviy adabiyot namunalari bilan bir qatorda kitobxonlarga butunlay yangicha asarlarni taqdim etgani bilan ham ahamiyatli. Postmodernizm vakillari olamning xaosdan iborat ekani, badiiy matnning individual matn bo‘lmay, o‘zga matnlarning laxtaklaridan tashkil topgan mozaikaviy xarakterga ega ekani, muallif o‘limi, miflarning zamonaviy interpretatsiyasi kabi kutilmagan nazariyalar bilan so‘z san’atiga oid an’anaviy tushuncha va nuqtayi nazarlarni ilgari surishadiki, bu o‘zgarishlar, o‘z navbatida, tezkor va chuqur tadqiqot qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, zamonaviy matnlarda qadimiy manbalar, mifologik motivlar va klassik adabiy kontekstlarning qayta talqini orqali yuzaga kelayotgan intermadaniy va intertekstual bog‘liqliklarni aniqlash va ilmiy asoslash dolzarb ahamiyatga ega..

Dunyo adabiyotshunosligida XX asrning ikkinchi yarmida falsafa va lingvistikadagi strukturalizm ta’sirida dastlab intertekstuallik, keyinroq transtekstuallik kabi nazariyalar paydo bo‘ldi, mavzuga oid nihoyatda ko‘p tadqiqotlar yaratildi. Bu nazariyalar badiiy matnning yangi-yangi talqinlarini vujudga keltirish bilan bir qatorda, badiiy adabiyotning zamonaviy taraqqiyot yo‘lini ham belgilab berdi. Shu bois, ushbu tadqiqot Riordan asarlaridagi yunon, rim, misr, skandinaviya kabi turli sivilizatsiyalarning mifologik arxetiplarini XXI asr o‘quvchisi uchun qayta tiklab berish, ularni zamonaviy madaniyat, yoshlar muammolari va global madaniy hodisalar bilan uyg‘unlashtirish, ushbu jarayonda adabiy transtekstuallikning nafaqat estetik, balki didaktik va ijtimoiy-falsafiy funksiyalarini ochib berish, transtekstuallikning besh shakli — intertekstuallik, paratekstuallik, metatekstuallik, arkitekstuallik va gipertekstuallik kabi kategoriyalarni aniqlash, ularni tahlil qilish orqali zamonaviy fantastik adabiyotning mifologik asoslarga tayanishini sistematik tarzda yoritish, jahon adabiyotida klassik va zamonaviy matnlar o‘rtasidagi muloqotni oydinlashtirish hamda adabiy merosning yangi interpretatsiyalarda qanday yashab kelayotganini ko‘rsatishga xizmat qiladi.

O‘zbek adabiyoti, jumladan, adabiyotshunosligi ham milliy istiqlol yillarida jahondagi boshqa xalqlar badiiy-estetik tajribalari asosida yangilanib, umumjahon taraqqiyotiga uyg‘unlashish yo‘lidan bormoqda. Milliy adabiyotda ham modernizm va postmodernizm unsurlari (garchi yaxlit yo‘nalish sifatida bo‘lmasa-da) paydo bo‘ldi va muammoga oid katta-kichik izlanishlar, tadqiqotlar amalga oshirildi. “... Adabiyot va san’atga, madaniyatga e’tibor — bu avvalo xalqimizga e’tibor, kelajagimizga e’tibor ekanini, buyuk shoirimiz Cho‘lpon aytganidek, adabiyot, madaniyat yashasa, millat yashashi mumkinligini unutishga bizning aslo haqqimiz yo‘q”[1]. Shu ma’noda jahon postmodernizmi adiblari ijodini, jumladan amerikalik fentezinavis adib Rik Riordan pentalogiyasini ilmiy tadqiq etish milliy adabiyotimizda postmodernizmning yakkam-dukkam emas, balki tizimli tartibda rivojlanish, shuningdek, mazkur dissertatsiya

[1] Мирзиёев Ш. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир. // Халқ сўзи, 2017 йил, 4 август.

transtekstuallikka oid dastlabki ish sifatida milliy adabiyotshunosligimizdagi bir bo‘shliqni to‘ldirishga dolzarb kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi farmonlari, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mazkur dissertatsiya amerikalik adib Rik Riordan ijodida transtekstuallikning voqelanishi muammosini o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, postmodernizm, transtekstuallik, intertekstuallik, fentezi singari nazariy masalalarni qamrab oladi. Bu borada jahon adabiyotshunosligida juda ko‘p ishlar amalga oshirilgan. Transtekstuallik va intertekstuallik muammolari talqini, avvalo, uning asoschilari bo‘lmish M.Baxtin, Y.Kristeva, J.Jenett asarlarida berilgan.[2]

Jahon tilshunosliga va adabiyotshunosligida transtekstuallik va intertekstuallik muammolari nazariy aspektda ham, muayyan ijodkor asarlari materialida ham dissertatsiya tadqiqotlar doirasida birmuncha o‘rganilgan.[3]

---

[2] Бахтин М. Автор и герой. – Санкт-Петербург: Азбука, 2000. – 336 с.; Бахтин М. Вопросы литературы и эстетики. – Москва: Художественная литература, 1975. – 504 с.; Бахтин М. Литературно-критические статьи. – Москва: Художественная литература, 1986. – 543 с.; Кристева Ю. Избранные труды: Разрушение поэтики. Составитель, отв. редактор Г.К. Косиков. Перевод с французского Г.Косикова и Б.Нарумова. – Москва: РОССПЭН, 2004. – 656 с.; Кристева Ю. Семиотика: Исследования по семанализу / пер. с фр. Е.Орловой. – Москва: Академический проект, 2013. – 285 с.; Кристева Ю. Текст романа // Кристева Ю. Избранные труды: Разрушение поэтики / пер. с фр. Г.Козикова, Б.Нарумова. – Москва: РОССПЭН, 2004. – С. 395–593.; Кристева Ю. Слово, диалог и роман [1966] / Перевод Г.К. Косикова // Кристева Ю. Избранные труды: Разрушение поэтики. – Москва: РОССПЭН, 2004. – С. 167.; Kristeva J. Bakhtine, Le mot, le dialogue et le roman // Critique, 1967. Т. 23, № 239, p. 438–465.; Женетт Ж. Палимпсесты: литература во второй степени / Ж. Женетт // Фигуры: Работы по поэтике: в 2 т. – Москва: Изд-во имени Сабашниковых, 1998. – 94 с.

[3] Бушманова Н. Проблема интертекста в литературе английского модернизма: Проза Д.Х. Лоуренса и В. Вульф // Дисс. на соиск... докт. филол. наук. – Москва, 1996. – 401 стр.; Викулова Л. Паратекст французской литературной сказки: прагмалингвистический аспект // Дисс. на соиск... докт. филол. наук. – Иркутск, 2001. – 363 стр.; Едошина И. Художественное сознание модернизма: истоки и мифологемы // Диссертация... доктора культурологии. – Кострома, 2002. – 350 стр.; Михайлова Е. Интертекстуальность в научном дискурсе (на материале статей) // Автореферат дисс. на соиск... канд. филол. наук. – Волгоград, 1999. – 22 стр.;

O‘zbek adabiyotida ham XX asrning oxirlari, ayniqsa, mustaqillikdan keyin postmodernizm elementlari yakkam-dukkam paydo bo‘ldi. Milliy adabiyotshunoslikda modernizmga oid katta-kichik tadqiqotlar ham amalga oshirildi,[4] ularda postmodernizm haqida nazariy fikrlar yo‘l-yo‘lakay bo‘lsa-da, aytildi-yu, ammo milliy adabiyotda postmodernizm belgilari ham mavjudligi e’tirof etilgan emas. Vaholanki, milliy adabiyotshunoslikda modernizm belgisi sifatida ko‘rsatilganlarning ayrimlari postmodernizmga tegishlidir. Binobarin, transtekstuallik va intertekstuallik jahon adabiyotshunosligida XX asrning 60-yillaridanoq aniqlangan bo‘lsa-da, bu haqda bizda endi-endi gapirilyapti. Chunonchi, bevosita bizning tadqiqotimizning o‘rganish obekti bo‘lgan badiiy matnni transtekstual o‘rganish milliy adabiyotshunosligimizda adabiyotshunos olima F.Xajiyeva tomonidan ilk tajriba qilindi.[5] Ammo transtekstuallik va intertekstuallik muammosi bizda na nazariy jihatdan, na biror yozuvchi asarlari materialida fundamental tarzda o‘rganilgan emas.

Ayni vaqtda amerikalik postmodern yozuvchi Rik Riordanning nomi o‘zbek kitobxonlariga ham bir qadar tanish. Uning “Persi Jekson va chaqmoqlar o‘g‘risi” asari o‘zbek tiliga tarjima qilingan.[6] Rik Riordan o‘zbekcha Vikipediya ensiklopediyasiga ham kiritilgan.[7] Ammo hozirga qadar bizda Rik Riordan ijodiga oid alohida fundamental tadqiqot yaratilgan emas.

Mazkur ishda, shuningdek, nazariy asos sifatida rus olimlari M.Baxtin, A.Potebnya, Yan Parandovskiy, V.Xalizev, Y.Borev, I.Ilin, J.Jenett, Y.Kristeva, I.Galperin, R.Uellek, A.Uarrena va boshqa qator olimlarning nazariy tadqiqotlari, jumladan, ham transtekstuallik, intertekstuallikka oid fundamental ishlaridan

---

Меламедова Е. Паратекстовые элементы в англоязычной научной и научно-популярной литературе // Дисс. на соиск... канд. филол. наук. – Самара, 2009. – 181 стр.; Сопина А. Когнитивный аспект интертекстуальности английского художественного текста: на материале романов Д.Лоджа // Автореферат дисс. на соиск... канд. филол. наук. – Санкт-Петербург, 2019. – 22 стр.; Илунина А. Интертекстуальность и её идейно-художественные функции в романах Роберта Ная «Фальстаф», «Странствие «Судьбы»», «Г-жа Шекспир: полное собрание сочинений» и «Покойный г-н Шекспир» // Дисс. на соиск... канд. филол. наук. – Воронеж, 2007. – 200 стр.; Баринова Е.Е. Метатекст в постмодернистском литературном нарративе (А.Битов, С.Довлатов, Е.Попов, Н.Байтов) // Дисс. на соиск... канд. филол. наук. – Тверь, 2008. – 248 с.; Байрамкулиеова Л. Поэтика А. Мердок в свете проблемы интертекстуальности: Мердок и Шекспир: дисс. ... канд. филол. наук. – Нальчик, 2005. – 189 стр.; Борисенко А. Семиотика интертекстуальности // Дисс. на соиск... канд. филол. наук. – Тверь, 2001. – 134 стр.

[4] Hamdamov U. XX asr o‘zbek she'riyati badiiy tafakkur tadrijining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari // Filologiya fanlari doktori... dissertatsiyasi. – Toshkent, 2018. – 252 bet; Yo‘ldosheva M. Hozirgi o‘zbek modern she'riyatining asosiy xususiyatlari // Filol.fan.nomz…diss.avtoreferati. – Toshkent, 2004 yil. – 24 bet; Sharafiddinov O. Modernizm jo‘n hodisa emas // Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. – Toshkent, «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik birlashmasi Bosh tahririyati, 2004 yil (640 bet). – 237–246-betlar; A'zam A. She'r – noma'lumlikka tanish ishora // Faxriyor. Ayolg‘u. – 5–6-betlar; Dunyoni yangicha ko‘rish ehtiyoji (Umarali Normatov va Ulug‘bek Hamdam suhbati) // Hamdam U. Yangilanish ehtiyoji. – Toshkent, «Fan», 2007. – 117–171-betlar; Qodirov P. Ma'naviyat, modernizm va absurd // «O‘zbekiston adabièti va san'ati», 2004 yil, 26 mart; Quronov S. Modern she'riyatda tasvir // «Yoshlik» jurnali, 2018 yil, 9-son // https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/sadullo-quronov-modern-sheriyatda-tasvir; Mamatqulova N. Modern she'riyat va absurd falsafasi // https://ziyouz.uz/matbuot/hozirgi-davr-matbuoti/nargis-mamatqulova-modern-sheriyat-va-absurd-falsafasi; Xolbekov M. Badiiy adabiyotda modernizm tavsifi // «Yoshlik» jurnali, 2011 yil, 3-son // https://ziyouz.uz/matbuot/hozirgi-davr-matbuoti

[5] Xajiyeva F. Amerika postmodern adabiyotida postmodern roman poetikasi (J.Parini, M.Kanning va L.Lalami asarlari misolida) // filol.fanl.dokt.(DSc) … dissertatsiya. – Buxoro, 2022. – 274 bet; Khajieva F. Theoretical aspects of the language learned (Stylistics). O‘quv qo‘llanma. – Buxoro: Durdona, 2020. – 190 p.

[6] Q.: https://barakot.uz/shop/product?id=285

[7] Q.: Rik Riordan // https://uz.wikipedia.org/wiki/Rik_Riordan

foydalanildi[8].

Dissertatsiya tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Buxoro davlat universiteti Ingliz adabiyotshunosligi va tarjimashunoslik kafedrasining 2019–2024-yillarga mo'ljallangan ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Adabiyotshunoslik va tarjimashunoslikning dolzarb muammolari: adabiy jarayon, qiyosiy adabiyotshunoslik, uslubshunoslik va tilshunoslik masalalari" mavzuidagi ilmiy yo'nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Rik Riordan ijodida transtekstuallik xususiyatini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

postmodern adabiyotda mifologik tafakkur va matnlararo aloqalarning badiiy funksiyasini aniqlash, transtekstuallik konsepsiyasining M. Baxtin, Yu. Kristeva, R. Bart va J. Jenett qarashlari asosidagi nazariy taraqqiyotini yoritish;

J. Jenett tasnifidagi intertekstuallik, paratekstuallik, metatekstuallik, gipertekstuallik va arxitekstuallik kategoriyalarining mazmuniy chegaralari, farqlovchi mezonlari hamda o'zaro integratsiyasini nazariy jihatdan asoslash;

Rik Riordan ijodiy shakllanishining biografik, pedagogik va adabiy omillarini tavsiflash, "Persi Jekson va olimpliklar" pentalogiyasining yaratilish manbalari hamda muallif ideostilining mifologik va narrativ xususiyatlarini belgilash;

pentalogiyada intertekstuallikning allyuziya va reminissensiya, paratekstuallikning sarlavha va bob nomlari, metatekstuallikning ichki va tashqi sharh shakllari orqali voqelanishini aniqlash hamda ularning semantik-poetik funksiyalarini tahlil qilish;

qadimgi yunon miflari va Riordan romanlari o'rtasidagi gipertekstual transformatsiyalarni, pastish va transpozitsiya usullarini hamda pentalogiyaning arxitekstual tabiatini aniqlash, transtekstual kategoriyalarning yagona mifopoetik tizim hosil qilishdagi rolini asoslash.

Tadqiqotning obyekti sifatida Rik Riordanning "Persi Jekson va Olimpliklar" pentalogiyasiga kirgan besh roman tanlangan.

Tadqiqotning predmetini Rik Riordan ijodida transtekstual xususiyatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari: tarixiy-nazariy, qiyosiy-tipologik, intertekstual,

[8] Бахтин М. Вопросы литературы и эстетики. – Москва: «Художественная литература», 1975. – 504 стр.; Бахтин М. Эстетика словесного творчества. – Москва: «Искусство», 1979. – 423 стр.; Хализев В.Е. Теория литературы. – Москва: Высшая школа, 2002. – 369 стр.; Борев Ю. Эстетика литературы. – Москва: Наука, 2003.; Ильин И. Постмодернизм. От истоков до конца столетия. Эволюция научного мифа. – Москва: «Интрада», 1998. – 255 стр.; Потебня А. Слово и миф. – Москва: «Правда», 1989. – 624 стр.; Потебня А. Теоретическая поэтика. – Москва: Высшая школа, 1990. – 344 стр.; Galperin I. Stylistics. – Moscow: Higher school, 1977. – 335 p.; Sosnovskaya V.B. Analytical Reading. – Москва: «Высшая школа», 1974. – С. 180.; Хазагеров Г. Основы теории литературы. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2009. – 317 с.; Кухаренко В.А. Интерпретация текста. – Ленинград: Просвещение, 1979. – 327 с.; Wellek R., Warren A. Theory of Literature. – New York: A Harvest Book, 1956. – 374 p.; Кристева Ю. Избранные труды: Разрушение поэтики. Составитель, отв. редактор Г.К. Косиков. Перевод с французского Г.Косикова и Б.Нарумова. – Москва: РОССПЭН, 2004. – 656 с.; Кристева Ю. Семиотика: Исследования по семанализу / пер. с фр. Е.Орловой. – Москва: Академический проект, 2013. – 285 с.; Kristeva J. Bakhtine, le mot, le dialogue et le roman // Critique, 1967. T. 23, № 239, p. 438–465.; Женетт Ж. Палимпсесты: литература во второй степени / Ж. Женетт // Фигуры: Работы по поэтике: в 2 т. – Москва: Изд-во имени Сабашниковых, 1998. – 94 с.

transtekstual, struktur-semantik va mifopoetik tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat.

Rik Riordanning “Persi Jekson va olimpliklar” pentalogiyasida intertekstuallik mifologik allyuziya va reminissensiyalar orqali voqelanishi, allyuziyaning xudolar, yarim xudolar, mifologik mavjudotlar, predmetlar va makonlarga qisqa semantik ishora sifatida, reminissensiyaning esa qadimgi syujet, obraz va motivlarning zamonaviy voqealar rivojida kengaytirilgan poetik xotira shaklida namoyon bo‘lishi dalillangan;

pentalogiyada paratekstualik roman va bob sarlavhalari, izohlar hamda boshqa matnatrofi birliklar orqali shakllanishi, ularning mifologik gipotekstga yo‘naltirish, asar mazmunini oldindan belgilash, kitobxon retsepsiyasini boshqarish va yumoristik-sarguzasht ohangini yuzaga keltirishdagi vazifalari aniqlangan, sarlavhalarning syujet, obraz va mifologik kodlar bilan semantik aloqadorligi asoslangan;

pentalogiyaga bag‘ishlangan ilmiy maqolalar, PhD dissertatsiyalar va tanqidiy tadqiqotlar tashqi metatekst sifatida, roman qahramonlarining qadimgi miflar, ma’budlar va mifologik voqealarga bildirgan izoh, munosabat va baholari esa ichki metatekst sifatida tasniflanib, ularning klassik miflarni sharhlash, qayta baholash va zamonaviy mazmun bilan boyitishdagi funksiyalari belgilangan;

“Persi Jekson va olimpiadlar” pentalogiyasida qadimgi yunon miflari gipotekst, Rik Riordan romanlari esa ularning transformatsiya, transpozitsiya va pastish asosida yaratilgan giperteksti sifatida namoyon bo‘lishi, mifologik syujet, obraz, motiv va makonlarning zamonaviy Amerika ijtimoiy-madaniy muhitiga ko‘chirilishi orqali yangi badiiy konflikt, qahramonlik modeli va axloqiy mazmun yuzaga kelishi isbotlangan;

pentalogiyaning arxitekstual tabiati bolalar va o‘smirlar fentezisi, sarguzasht romani, mifologik roman, qahramonlik eposi hamda ulg‘ayish qissasi belgilarining janriy sintezi asosida shakllanishi aniqlanib, mazkur janriy qatlamlarning yagona makrosyujet, bashorat motivi, qahramonlik safari va o‘smirning ruhiy-axloqiy kamoloti bilan o‘zaro bog‘lanishi takomillashgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

postmodernizm adabiyotida mif va mifologik obrazlar uyg‘unligini ochib berishda transtekstuallik nazariyasining maydonga kelishi va tadrijini, shuningdek, unga oid ilmiy bahslar obzorini ochib berilgan;

Rik Riordan biografiyasi va asarlarining qisqacha tavsifi, bolalar yozuvchisi sifatidagi faoliyati hamda Amerika va jahon postmodernizm adabiyoti rivojidagi o‘rni belgilab, uning mifopoetikani qo‘llash usullari aniqlangan;

Rik Riordanning fragmentallik konsepsiyasi hamda individual uslubi allyuziya, reminissensiya va paratekst elementlarining ilmiy tadqiq orqali ochib berilgan, shuningdek, antik mifologiya orasidagi gipertekstual aloqadorlikni tahlil etish orqali ilk jamoaviy tafakkur mahsuli bo‘lgan qadimgi miflarning individual tafakkur hamda zamonaviy adabiyot bilan sintezlashuv tamoyillari belgilangan;

Rik Riordan pentalogiyasiga kirgan romanlarda zamonaviy ijtimoiy va axloqiy-ma’naviy muammolarning badiiy talqini ekanligi, qadim mifologiyada poetika unsuri bo‘lmagan badiiy elementlarning individual ijodda poetika sathiga

o‘tishiga oid xulosalar bayon qilinganligi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi xorij va respublika miqyosida ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, ilmiy-amaliy konferensiyalarda o‘qilgan ma’ruzalar, nashr etilgan tezis va maqolalar, hamda obyektga ilmiy yondashuv va qo‘llanilgan usullarning tadqiqot maqsadiga mosligi, nazariy ma’lumotlarning ilmiy manbalarga asoslanganligi, obyekt sifatida olingan manbalarning tadqiqot predmetiga muvofiqligi, nazariy qarashlar va xulosalarning amaliyotga tatbiq etilganligi, natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati postmodernizm adabiyotida badiiy tafakkurning yangilanish jarayoni va unga xos xususiyatlarning aniqlangani, transtekstuallik nazariyasining paydo bo‘lishi va rivoji, unga oid bahslarning xronologik tadqiq etilgani, transtekstuallikning nazariy tavsifi berilgani, amerikalik mashhur yozuvchi Rik Riordan biografiyasining yaratilgani, Rik Riordan asarlarining ilmiy tadqiq asosida transtekstuallik nazariyasining badiiy tahlil amaliyotiga tatbiq etilgani, oliy o‘quv yurtlarining filologik ta’lim yo‘nalishlari va magistraturalarda jahon, jumladan, Amerika adabiyotini o‘qitish uchun nazariy-amaliy material tayyorlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati sifatida dissertatsiya xulosalari va tavsiyalaridan oliy ta’lim muassasalari talabalari uchun “Jahon adabiyoti tarixi”, “Hozirgi adabiy jarayon”, “Amerika adabiyoti”, “Badiiy tahlil asoslari”, “Postmodernizm adabiyoti” kabi fanlardan darslik va qo‘llanmalar yaratish, ma’ruza, amaliy hamda seminar mashg‘ulotlari o‘tishda, magistrlik dissertatsiyalari yozishda, ma’naviyat asoslariga doir ma’ruzalar o‘qishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Rik Riordan ijodida transtekstuallik bilan bog’liq xususiyatlarni aniqlash jarayonida olingan ilmiy natija va xulosalar asosida:

Rik Riordan ijodida transtekstuallik (matnlararo aloqadorlik), intertekstuallik (matnlararo aloqadorlik), *arxitekstuallik* (janriy aloqadorlik), *paratekstuallik* (sarlavha, epigraf, so‘zboshi, so‘ngso‘z, annotatsiya bilan munosabatdorlik), *gipertekstuallik* (ikki matnning o‘zaro munosabatdorligi), *metatekstuallik* (muallifning sharh va izohlari) kabi kategoriyalar integratsiyasida voqelanishiga doir nazariy xulosalardan O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan KA-3-007 “O‘zbekistonda fan va ta’lim integratsiyalashuvi jarayonining ijtimoiy, ma'naviy-axloqiy, konseptual falsafiy muammolari tahlili” mavzusidagi amaliy loyihasida foydalanilgan (O‘zbekiston milliy universitetining 2025-yildagi 14-fevraldagi №04/11-2609-son ma’lumotnomasi). Natijada fan va ta’lim integratsiyalashuvi jarayonida qadim mifologiyada poetika unsuri bo‘lmagan badiiy elementlarning individual ijodda poetika sathiga o‘tishiga oid xulosalarni ilmiy asoslashga xizmat qilgan;

Rik Riordanning romanlarida transtekstuallik qadimgi yunon mifologiyasi bilan zamonaviy voqelikni bog‘lashda; qadimiy obrazlar, qahramonlar va voqealarni yangi kontekstda qayta talqin qilishda; retsipient mifologik bilimlar

asosida yangi ma’nolarni va madaniy kodlarni idrok etishida birlamchi vosita ekanligiga oid ilmiy xulosalaridan Yevropa Komissiyasi tomonidan moliyalashtirilgan hamda BuxDU va Bolgariyaning Sofiya universiteti hamkorligida amalga oshirilgan “KA-171 akademik almashinuv loyihasi” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Buxoro davlat universitetining 2025-yil 31-yanvardagi №06/688-son ma’lumotnomasi). Natijada transtekstuallikning badiiy matnda voqelanishi, Rik Riordan ijodining zamonaviy jahon adabiyotidagi o‘rni va postmodernizm tamoyillarini aks ettirishi, mifologik tafakkurning individual tafakkur bilan sintezlashuviga doir ilmiy-nazariy tamoyillar ishlab chiqilgan;

Rik Riordanning pentalogiyasida *intertekstuallik* qahramonlar va voqealarni zamonaviy kontekstda bevosita ishora etilganligida, *paratekstuallik* roman nomlari, bob, sarlavhalari orqali gipertekst va gipotekst o‘rtasidagi aloqalar mavjudligida, *metatekstuallik* klassik miflarga zamonaviy talqin qilinganligida namoyon bo‘lishi bilan bog‘liq xulosalardan Buxoro viloyati teleradiokompaniyasida “Yoshlar siyosati amalda”, “Assalom, Buxoro”, “Najot – bilimda” teleko‘rsatuvlari ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Buxoro viloyati teleradiokompaniyasining 2025-yil 4-apreldagi №56-son ma’lumotnomasi). Natijada teletomoshabinlarning kitobxonlikka qiziqishini oshirishda telekompaniya ijodiy jamoasi sohaviy, keng omma tinglovchilarining adabiyotshunoslik bilimlari boyitilishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta, jumladan, 1 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-nazariy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha 20 ta ilmiy ish e’lon qilingan, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan bo’lib, umumiy hajmi 142 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Postmodern adabiyotida transtekstuallik nazariyasi va Rik Riordan ijodi”** deb nomlangan birinchi bobida postmodern badiiy tafakkurning mifologik asoslari, transtekstuallik nazariyasining shakllanish va rivojlanish bosqichlari, shuningdek, Rik Riordan ijodiy faoliyati hamda uning “Persi Jekson va olimpliklar” pentalogiyasiga doir metatekstual munosabatlar

tadqiq etilgan. Bobning tuzilishi postmodernizm, mif, matnlararo aloqadorlik va yozuvchi ijodini yagona ilmiy-nazariy tizimda o‘rganishga yo‘naltirilgan.

Bobning birinchi faslida postmodernizm avvalgi adabiy an’analarni butunlay inkor etuvchi hodisa emas, balki ularni yangi tarixiy-madaniy sharoitda qayta faollashtiruvchi badiiy tafakkur shakli ekanligi asoslangan. Postmodern matnda mif, tarix, falsafa, xalq og‘zaki ijodi, klassik syujet va obrazlar yangi kontekstga ko‘chirilib, mozaikaviy va ko‘pqatlamli poetik tuzilmani hosil qiladi. Shu jihatdan mif insoniyat madaniy xotirasining barqaror shakli sifatida talqin etiladi. Z. Freyd miflarni “yosh insoniyatning asriy tushlari” deb atab, ularda jamoaviy ongning qadimiy kechinmalari saqlanishini ta’kidlaydi[9]. Mazkur qarash asosida Riordan romanlaridagi Zevs, Poseydon, Aid, Afina, Ares, Meduza, Minotavr va Ximera kabi obrazlar oddiy takror emas, balki zamonaviy o‘smir dunyoqarashiga moslashtirilgan mifologik kodlar sifatida baholanadi. Masalan, Olimpning zamonaviy Amerika hududiga ko‘chirilishi, xudolarning bugungi kiyimlarda tasvirlanishi va yarim ma’budlarning maxsus lagerda tarbiyalanishi qadimgi mif bilan XXI asr voqeligining postmodern sintezini namoyon etadi.

Ikkinchi faslda transtekstuallik nazariyasining M. Baxtin dialogizm konsepsiyasidan Yu. Kristevaning intertekstuallik ta’limoti va J. Jenett tasnifigacha bo‘lgan taraqqiyoti yoritilgan. M. Baxtinning fikricha, har bir nutqiy birlik boshqa nutqlar bilan bog‘langan muloqot zanjirining bir halqasidir[10]. Yu. Kristeva ushbu qarashni rivojlantirib, “har qanday matn iqtiboslar mozaikasi sifatida quriladi; har qanday matn boshqa matnning singdirilishi va o‘zgarishidir”, deb yozadi[11]. Demak, badiiy asar mutlaq mustaqil hodisa emas, balki avvalgi matnlar, madaniy belgilar va diskurslar bilan uzviy aloqada shakllanadi. J. Jenett esa transtekstuallikni “matnni boshqa matnlar bilan oshkora yoki yashirin munosabatga kiritadigan barcha aloqalar” tarzida tavsiflaydi[12] va uning intertekstuallik (bir matn tarkibida boshqa matn, mif, obraz, iqtibos yoki ishoraning bevosita yoxud bilvosita ishtiroki), paratekstuallik (asosiy matnning sarlavha, epigraf, so‘zboshi, izoh, annotatsiya kabi matnatrofi unsurlari bilan aloqasi), metatekstuallik (bir matnning boshqa matnni sharhlashi, izohlashi, baholashi yoki tanqidiy talqin qilishi), gipertekstuallik (keyingi matnning avvalgi matn syujeti, obrazi yoki motivini transformatsiya, taqlid yoxud qayta yaratish asosida hosil bo‘lishi) hamda arxitekstuallik (matnning muayyan janr, adabiy tur va bayon shakllari bilan bog‘liqligi) kabi besh turini ajratadi.

Tadqiqotda ushbu kategoriyalar bir-biridan ajratilgan holda emas, balki o‘zaro kesishuvchi yagona poetik tizim sifatida izohlangan. Riordan pentalogiyasida mifologik qahramon va voqealarning bevosita ishtiroki intertekstual aloqani, roman va bob nomlari paratekstual qatlamni, qadimgi miflarning yangicha syujetga aylantirilishi gipertekstual munosabatni, asarlarning fentezi va qahramonlik eposi bilan bog‘lanishi esa arxitekstual xususiyatni yuzaga

[9] Freud, S. *Moses and Monotheism*. New York: Vintage Books, 1959. – P. 152.

[10] Бахтин М.М. *Литературно-критические статьи*. Москва: Художественная литература, 1986. – С. 69.

[11] Kristeva, J. *Desire in Language: A Semiotic Approach to Literature and Art*. New York: Columbia University Press, 1980. – P. 66.

[12] Genette, G. *Palimpsests: Literature in the Second Degree*. Lincoln: University of Nebraska Press, 1997. – P. 1.

keltiradi.

Uchinchi faslda Rik Riordanning tarjimayi holi, pedagogik tajribasi, ijodiy shakllanish omillari va asarlarining o‘rganilishi tahlil qilingan. Yozuvchining yunon miflarini o‘g‘liga hikoya qilib berishi natijasida Persi Jekson obrazi shakllangani, qahramonning disleksiya va diqqat yetishmovchiligi kabi xususiyatlari esa kamchilik emas, yarim ma’budlik belgisi sifatida qayta talqin etilgani ko‘rsatilgan. “Persi Jekson va olimpliklar” pentalogiyasi qadimgi yunon mifologiyasi, zamonaviy Amerika madaniyati, oilaviy munosabatlar va o‘smirning shaxsiy kamolotini yagona syujet tizimiga birlashtiradi.

Faslda, shuningdek, metatekstuallikning tashqi va ichki ko‘rinishlari nazariy jihatdan farqlanadi. J. Jenett talqiniga ko‘ra, bir matnning boshqa matnni davom ettirmasdan yoki badiiy jihatdan qayta yaratmasdan, uning mazmuni, poetikasi, obrazlar tizimi va g‘oyaviy yo‘nalishini izohlashi, baholashi yoxud tanqidiy tahlil qilishi metatekstual munosabatni yuzaga keltiradi[13]. Shu sababli “Persi Jekson va olimpliklar” pentalogiyasiga bag‘ishlangan ilmiy maqolalar, PhD dissertatsiyalari va adabiy-tanqidiy tadqiqotlar romanlar sikliga nisbatan tashqi metatekst sifatida baholanadi. Chunki ushbu ilmiy ishlar pentalogiya voqealarini davom ettirmaydi, balki uning badiiy mazmunini turli nazariy yondashuvlar asosida sharhlaydi va qayta baholaydi. Ularda miflarning adaptatsiyasi, qahramonlik, oila, disleksiya, pedagogika va Amerika madaniyati masalalari sharhlanadi. Personajlarning qadimgi xudolar, qahramonlar va mifologik voqealarga bildirgan izoh, baho hamda kinoyaviy munosabatlari esa ichki metatekstual qatlamni hosil qiladi[14].

Pentalogiyadagi ichki metatekst Persining Olimp xudolariga bildirgan

---

[13] Genette, G. *Palimpsests: Literature in the Second Degree*. Lincoln: University of Nebraska Press, 1997. – P. 4.

[14] Morey, Anne, and Claudia Nelson. “‘A God Buys Us Cheeseburgers’: Rick Riordan’s Percy Jackson Series and America’s Culture Wars.” *The Lion and the Unicorn*, vol. 39, no. 3, 2015, pp. 235–253. DOI: 10.1353/uni.2015.0025. (ResearchGate); Kirby, Philip. “Gift from the Gods? Dyslexia, Popular Culture and the Ethics of Representation.” *Disability & Society*, vol. 34, nos. 9–10, 2019, pp. 1573–1594. DOI: 10.1080/09687599.2019.1584091. Jurnal Scopus bazasida indekslanadi. (Taylor & Francis Online); Okyayuz, Ayşe Şirin. “Anglo-American Teen Literature in Translation.” *New Review of Children’s Literature and Librarianship*, vol. 23, no. 2, 2017. DOI: 10.1080/13614541.2017.1367580. (Taylor & Francis Online); Tveit, Åse Kristine. “Reading Habits and Library Use Among Young Adults.” *New Review of Children’s Literature and Librarianship*, vol. 18, no. 2, 2012, pp. 85–104. DOI: 10.1080/13614541.2012.714341. (Taylor & Francis Online); Dempster, Steven, Jane Sunderland, and Joanne Thistlethwaite. “What Has Harry Potter Done for Me? Children’s Reflections on Their ‘Potter Experience’.” *Children’s Literature in Education*, vol. 47, 2016. DOI: 10.1007/s10583-015-9267-x. (Springer); Hinds Scott, Aimee Rachel, and Maciej Paprocki. “Casting Black Athenas: Black Representation of Ancient Greek Goddesses in Modern Audiovisual Media and Beyond.” *Journal of Popular Film and Television*, vol. 51, no. 1, 2023, p. 29. DOI: 10.1080/01956051.2023.2171659. Jurnalning Scopusda indekslanishi nashriyot sahifasida ko‘rsatilgan. (pure.roehampton.ac.uk); Du Plessis, Charmaine. “Re-discovering Mythology: Adaptation and Appropriation in the Percy Jackson and the Olympians Saga.” *Mousaion: South African Journal of Information Studies*, 2016. DOI: 10.25159/0027-2639/1690. (ResearchGate) (murojaat sanasi: 20.07.2026); Hikmat, Muhamad Nurul. “Greek Mythology as Seen in Rick Riordan’s The Lightning Thief.” Lexicon. DOI: 10.22146/lexicon.v1i1.5310; Borden, Caitlin E. Boyle. “Bring on the Monsters”: Narrative Transformation and Musical Storytelling in The Lightning Thief: The Percy Jackson Musical; Based on Rick Riordan’s Middle Grade Novel Percy Jackson and the Lightning Thief. PhD dissertation, Graduate Program in Education: Teaching and Learning, The Ohio State University, 2023. (OhioLINK) URL: https://etd.ohiolink.edu/acprod/odb_etd/ws/send_file/send?accession=osu1689713396095138& disposition=inline; Smith, Ffion. A Funny Thing Happened on the Way to the Forum: The Presence of Greco-Roman Antiquity in the Broadway Musical. PhD thesis, University College London, 2026. URL: https://discovery.ucl.ac.uk/id/eprint/10223952/; Jacobs, Laura Emily. Scripting the Narrative: A Critical Content Analysis of EL Education’s Middle School English Language Arts Curriculum. PhD dissertation, North Carolina State University, 2022. (repository.lib.ncsu.edu) URL: https://repository.lib.ncsu.edu/handle/1840.20/39828.

tanqidiy munosabatida namoyon bo‘ladi: “No more undetermined children,” I said. “I want you to promise to claim your children—all your demigod children—by the time they turn thirteen. They won’t be left out in the world on their own at the mercy of monsters. I want them claimed and brought to camp so they can be trained right, and survive”[15] Qahramon ushbu nutqi orqali qadimgi miflarda ulug‘langan ma’budlarni zamonaviy ota-onalik mas’uliyati mezonlari asosida baholaydi. Miflarda xudolarning insonlardan farzand ko‘rishi ularning qudratini anglatsa, Riordan romanida farzandlarni tan olmaslik beparvolik va adolatsizlik sifatida talqin qilinadi. Demak, personaj qadimgi mifologik an’anani shunchaki eslatmaydi, balki uni sharhlaydi, tanqid qiladi va yangi axloqiy mazmun bilan boyitadi. Shu sababli mazkur epizod ichki metatekst hisoblanadi.

Dissertatsiyaning **“Rik Riordan ijodining intertekstual va paratekstual xususiyatlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida “Persi Jekson va olimpliklar” pentalogiyasida intertekstuallikning allyuziya va reminissensiya shakllari, shuningdek, paratekstuallikning roman hamda bob sarlavhalari orqali namoyon bo‘lish xususiyatlari tahlil qilingan. Bobning birinchi fasli qadimgi yunon mifologiyasi, diniy-madaniy qarashlar va zamonaviy Amerika voqeligining bitta badiiy matn doirasida o‘zaro uyg‘unlashuviga bag‘ishlangan bo‘lsa, ikkinchi faslda pentalogiyaga kiruvchi besh roman sarlavhasining syujet, mifologik obraz va markaziy konflikt bilan semantik aloqasi ochib berilgan.

Postmodern adabiyotdagi fragmentallik voqelikni bir yo‘nalishda rivojlanadigan yaxlit va yopiq tizim sifatida emas, balki turli tarixiy davrlar, madaniy kodlar, miflar, diniy tasavvurlar va zamonaviy belgilar kesishmasida shakllanuvchi murakkab hodisa sifatida tasvirlashga xizmat qiladi. Rik Riordan romanlarida ham qadimgi yunon miflari, tarixiy voqealar, diniy motivlar, ommaviy madaniyat, texnologiyalar va Amerika kundalik hayotiga tegishli detallar birlashtiriladi. Biroq bu fragmentlar tartibsiz va tasodifiy joylashtirilmaydi. Ular yagona sarguzasht syujetiga bo‘ysundiriladi, Persining xarakterini ochadi, uning ruhiy kamolotini ko‘rsatadi hamda qadimgi miflarni XXI asr o‘smir kitobxoniga tushunarli shaklda qayta taqdim etadi. Shu sababli fragmentallik Riordan poetikasida matnning parchalanishini emas, aksincha, turli madaniy qatlamlarning yangi badiiy birlikka aylanishini bildiradi.

Bobning birinchi faslida intertekstuallikning *allyuziya* va *reminissensiya* shakllari nazariy hamda amaliy jihatdan farqlanadi. Allyuziya muayyan mif, diniy rivoyat, tarixiy voqea, shaxs yoki madaniy belgiga qisqa va bilvosita ishora qilish orqali keng ma’no qatlamini faollashtiradi. Bunday ishoraning to‘liq anglanishi kitobxonning avvalgi bilimlari va madaniy xotirasiga bog‘liq. Reminissensiyada esa avvalgi matn yoki mifning faqat nomi eslatilmaydi, balki uning obraz, detal, motiv yoki syujeti yangi voqealar tarkibida kengroq qayta tiklanadi. Demak, allyuziya ixcham semantik ishora bo‘lsa, reminissensiya avvalgi matnning badiiy xotirada yangilangan va rivojlantirilgan shaklidir.

Pentalogiyadagi *diniy-tipologik allyuziya*ning muhim namunasi Pan obrazi bilan bog‘liq. “Chaqmoq o‘g‘risi” romanida Grouver yo‘qolib ketgan tabiat xudosi

[15] Riordan, Rick. *Percy Jackson and the Olympians: The Last Olympian*. London: Puffin Books, 2009. – P.186.

Panni izlash istagini Persiga tushuntiradi:

“Pan!” he cried indignantly. “P-A-N. The great god Pan! What do you think I want a searcher’s licence for?”

“Not once in two thousand years?”

“No.”

“But you still want to go?” I said, amazed.

“I have to believe that, Percy. Every searcher does. It’s the only thing that keeps us from despair when we look at what humans have done to the world. I have to believe Pan can still be awakened.”[16]

Mazkur parchada yunon mifologiyasidagi yovvoyi tabiat, o‘rmon, cho‘ponlik va hosildorlik xudosi Pan haqida so‘z boradi. Satirlar uni ikki ming yil davomida izlagan bo‘lsalar-da, biror qidiruvchi uni topmagan. Odamlar Panni o‘lgan yoki butunlay yo‘qolgan deb hisoblaydilar, Grouver esa uning qaytishiga ishonishni davom ettiradi. Parchadagi *“two thousand years”* birikmasi oddiy vaqt ko‘rsatkichi sifatida emas, balki diniy-madaniy xotirani faollashtiradigan allyuziv belgi sifatida talqin qilinadi. Ikki ming yil avval yo‘qolgan ilohiy mavjudotning qaytib kelishiga ishonish motivi nasroniylikdagi Iso Masihning ikkinchi bor kelishi haqidagi e’tiqod bilan assotsiativ aloqani hosil qiladi. Islomiy ta’limotda ham Iso alayhissalomning o‘ldirilmagani, Alloh huzuriga ko‘tarilgani va qiyomat yaqinlashganda qaytishi qayd etiladi. Shu jihatdan Pan va Iso obrazlari aynanlashtirilmaydi, balki ular o‘rtasida “yo‘qolgan, ammo qaytishi kutiladigan ilohiy kuch” arxetipi asosidagi tipologik yaqinlik yuzaga keladi. Ushbu allyuziya Pan haqidagi mifologik voqeani kengroq diniy-madaniy ma’no bilan boyitadi. Ayni paytda, Panning yo‘qolishi tabiatning inson faoliyati natijasida yemirilishini anglatadi. Grouverning “when we look at what humans have done to the world” degan so‘zlari orqali ekologik muammo mifologik ishonch bilan bog‘lanadi: Panni izlash tabiat xudosini topish bilangina cheklanmay, insoniyatning tabiat bilan yo‘qolgan uyg‘unligini tiklash istagini ifodalaydi.

Reminissensiyaning xarakterli namunasi esa Germesning qanotli oyoq kiyimi asosida yaratilgan uchar krossovkalar detalida kuzatiladi. Qadimgi yunon mifologiyasida Germes xudolarning xabarchisi bo‘lib, tez harakatlanish imkonini beradigan qanotli sandallar — *talaria* bilan tasvirlanadi. Riordan ushbu mifologik buyumning asosiy vazifasini saqlaydi, biroq uning tashqi shaklini zamonaviy o‘smirlar madaniyatiga moslashtirib, oddiy sport krossovkasiga aylantiradi. Luka xavfli safarga chiqayotgan Persiga otasi Germesdan qolgan sehrli krossovkalarni beradi. Poseydonning o‘g‘li sifatida havoda uchish Persi uchun xavfli ekanini Xiron tushuntirgach, qahramon ularni Grouverga topshiradi:

“I nodded, disappointed, but then I got an idea.

“Hey, Grover. You want a magic item?”

His eyes lit up. “Me?”

Pretty soon we’d laced the sneakers over his fake feet, and the world’s first flying goat boy was ready for launch.

“Maia!” he shouted.

[16] Riordan, Rick. *Percy Jackson and the Lightning Thief*. – Puffin Books. 2005. – P.197-199.

He got off the ground okay, but then fell over sideways so his backpack dragged through the grass. The winged shoes kept bucking up and down like tiny broncos.

"Practice," Chiron called after him. "You just need practice!"

"Aaaaa!" Grover went flying sideways down the hill like a possessed lawn mower, heading toward the van."[17]

Mazkur epizodda Germesning qanotli sandallari zamonaviy sport krossovkalari shaklida qayta yaratilgan. Buyumning tashqi ko'rinishi o'zgargan bo'lsa-da, uning uchish va tez harakatlanish vazifasi saqlanib qolgan. "Maia" buyrug'i ham Germesning onasi Mayyaga ishora qiladi. Shu sababli mazkur detal oddiy allyuziya emas, balki mifologik atributning shakli, vazifasi va harakat mexanizmi yangi syujetda tiklangan *reminissensiya*dir. Riordan ilohiy uchish vositasini yumoristik tarzda tasvirlaydi: Grouver muvozanatini yo'qotadi, krossovkalar esa uni boshqarib bo'lmaydigan "kichik yovvoyi otlar" singari turli tomonga tortadi. Keyinchalik ular Grouverni Tartarga sudrashga uringani sababli sehrli buyum erkinlik va tezlik timsolidan yashirin xavf belgisiga aylanadi. Demak, reminissensiya qadimgi predmetni zamonaviylashtirish bilan cheklanmay, unga aldov, ishonchsizlik va xiyonat ma'nolarini ham yuklaydi.

Bobning ikkinchi faslida roman nomlarining asosiy matn bilan semantik aloqasi o'rganilgan. J. Jenett ta'limotiga ko'ra, paratekst asar bilan kitobxon o'rtasidagi "ostonadir": u o'quvchini matnga olib kiradi, dastlabki talqin yo'nalishini belgilaydi va qabul jarayonini boshqaradi[18]. Asar nomi, bob sarlavhalari, epigraf, bag'ishlov, so'zboshi va izohlar paratekstning asosiy shakllaridir. Riordan pentalogiyasidagi besh roman nomi tematik sarlavhalar bo'lib, har biri markaziy mifologik predmet, makon, konflikt yoki qahramonni oldindan belgilaydi.

Pentalogiya sarlavhalari har bir roman mazmunining asosiy yo'nalishini oldindan belgilovchi paratekstual koddir. "The Lightning Thief" Zevs chaqmog'ining o'g'irlanishi va aybdorni izlashni, "The Sea of Monsters" xavfli mifologik makon hamda oltin teri safarini anglatadi. "The Titan's Curse" Atlasning osmon yukini ko'tarish jazosi orqali mas'uliyat va fidoyilikni ifodalaydi. "The Battle of the Labyrinth" Dedal labirinti ustidan kechadigan strategik kurashni bildiradi. "The Last Olympian" esa Olimpni qo'riqlab qolgan Hestiyani nazarda tutib, qahramonlikni kuchdan ko'ra sadoqat, tinchlik va qadriyatlarni asrash bilan bog'laydi.

Dissertatsiyaning **"Rik Riordan romanlarida mifopoetika"** deb nomlangan uchinchi bobida "Persi Jekson va olimpliklar" pentalogiyasining qadimgi yunon mifologiyasi bilan gipertekstual aloqalari hamda asarlar turli janrlar belgilarini birlashtirgan arxitekstual tizim sifatida tadqiq etilgan.

Bobning birinchi faslida gipertekstuallik bir matnning undan avval mavjud bo'lgan boshqa matn asosida yangi asarga aylantirilishi sifatida izohlanadi. J. Jenettga ko'ra, keyingi matn – gipertekst avvalgi matn – gipotekstdan

[17] Riordan, Rick. *Percy Jackson and the Lightning Thief.* – Puffin Books. 2005. – P.158.

[18]Genette, G. *Palimpsests: Literature in the Second Degree* / trans. by C. Newman and C. Doubinsky. – Lincoln and London: University of Nebraska Press, 1997. – P. 3-4.

transformatsiya yoki taqlid orqali hosil bo‘ladi, biroq uni shunchaki sharhlamaydi; balki uning syujeti, obrazlari va motivlarini yangi shaklda qayta yaratadi[19]. Shu ma’noda qadimgi yunon miflari Riordan pentalogiyasining gipoteksti, “Persi Jekson va olimpliklar” romanlari esa ularning zamonaviy gipertekstidir. Yozuvchi antik miflarni aynan takrorlamaydi, balki ularni XXI asr Amerikasi, o‘smirlar hayoti va zamonaviy ijtimoiy muammolarga ko‘chiradi.

Gipertekstual transformatsiyaning tushunarli namunasi Axilles va Stiks daryosi haqidagi mifning Persi obrazida qayta yaratilishidir. Qadimgi mifda Fetida o‘g‘li Axillesni daxlsiz qilish uchun Stiks daryosiga botiradi, biroq uni poshnasidan ushlab turgani sababli shu nuqta zaif bo‘lib qoladi. “So‘nggi olimpiyalik” romanida Persi ham Kronosga qarshi jang oldidan Stiksga tushadi. Yerosti saltanatida u Axillesning ruhini ko‘radi:

“He wore a white tunic and bronze armor... a bloody arrow stuck out of his left calf, just above the ankle... ‘Achilles,’ I said.”[20]

Mazkur epizodda qadimgi mif syujeti saqlanadi: Stiks suvi qahramon tanasini jarohatdan himoya qiladi, ammo bitta zaif nuqta qoladi. Biroq Riordan gipotekstni muhim o‘zgarishlar bilan yangilaydi. Axillesning zaif joyi poshnasi bo‘lsa, Persining himoyasiz nuqtasi belining kichik qismidir. Axilles zaif nuqtasi sabab halok bo‘ladi, Persi esa o‘z sirini saqlab, jangdan tirik chiqadi. Shunday qilib, mifologik model takrorlanadi, ammo natija o‘zgartiriladi. Bu gipertekstual transpozitsiyada Persi Axillesning oddiy nusxasi emas, qadimgi qahramon tajribasini o‘zlashtirib, uning fojiaviy taqdirini takrorlamagan zamonaviy qahramonga aylanadi.

Transformatsiya qahramonlik mazmunida ham ko‘rinadi. Axilles uchun shon-shuhrat va jangovar jasorat ustuvor bo‘lsa, Persining asosiy kuchi do‘stlik, sadoqat va axloqiy tanlovda namoyon bo‘ladi. U Kronosni faqat jismoniy kuch bilan yengmaydi; Luka qalbida insoniylik saqlanib qolganiga ishonib, Annabetning pichog‘ini unga beradi. Natijada Luka o‘z tanasini egallagan Kronosni yo‘q qilish uchun o‘zini qurbon qiladi. Demak, Riordan qadimgi epik qahramonlikni qayta talqin qilib, individual shon-shuhrat o‘rniga ishonch, kechirim va fidoyilikni olib chiqadi. Bu o‘zgarish gipertekstning gipotekstdan mazmunan mustaqillashganini ko‘rsatadi.

